

24-dars

Darsning mavzusi: Soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar.

Darsning taʼlimiy maqsadi: oʻquvchilarning soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar haqidagi bilimlarini boyitish; gapdagi soʻzlarni oʻzaro bir-biri bilan qoʻshimchalar yordamida bogʻlay olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: oʻquvchilarni tabiatga mehri va ajdodlarimizga mos qilib tarbiyalash; oʻquvchilarni bajarilayotgan mashqning maqsadini tushunishga oʻrganish; oʻzining xato va kamchiliklarini toʻgʻri tushunib, oʻzini nazorat qila olish, oʻrtoqlariga yordam berish; aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza olish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: mashq matnlari orqali oʻquvchilarning bogʻlanishli nutqini oʻstirish; mavzuga oid soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllay olish, oʻzlashtirilgan leksik birliklarni matnda qoʻllay olish.

Darsning turi: bilimlarni shakllantiruvchi; oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini rivojlantiruvchi.

Darsning metodi: suhbat, analiz, koʻrgazmalilik, mustaqil ish metodi.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish,
- davomatni aniqlash,
- oʻquvchilarni darsga hozirlash.

II. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Har narsaning ozi shirin

Oʻtilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish. Uyga berilgan mashq oʻqitiladi. Uy vazifasi tekshirilayotganda doim oʻquvchilarga “Qaysi soʻzda yoki shu soʻzning qayerida imlo xato qilib qoʻyish mumkin?” degan savol berish hamda oʻsha soʻzning imlosi ustida ishlash lozim. Soʻz va gap haqidagi bilimlarini soʻrab mustahkamlash.

IV. Mustahkamlash.

1-topshiriq.

Berilgan qoidani o'qing va yodda tuting.

-ni, -ning, -ga, -da, -dan qo'shimchalari so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardir.

103-mashq. Matndagi so'z yasovchi so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar ishtirok etgan so'zlarni aniqlang.

Yerda mavjud bo'lgan tortishish kuchi bizni havoda muallaq turmasligimizni ta'minlaydi. Fazoda esa fazogirlar vaznsizlik holatini boshdan kechiradilar. Arzimas kichik harakatlar ham ularning xona bo'ylab havoda suzib yurishlariga yoki havoda muallaq turishlariga sababchi bo'lishi mumkin.

Yerda, bizni, havoda, turmasligimizni, fazoda, holatini, boshdan, ularning, havoda, yurishlariga, turishlariga.

Dam olish daqiqasi

Qovoq

Chiroyli taram-taram,
Somsalar yopar xolam.
Semiz deya kulmangiz,
Mag'zim shirin yesangiz.

104-mashq. O'qing. Savollarga javob bering. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar ishtirok etgan so'zlarni ko'chirib yozing. Matn ifodali o'qiladi.

O'zining, paytida, chorbog'ida, egardan-egarga, yerga, tushganini, Humoyunni, ko'zdan, chavandozlikdan bizdan, ishda, sizdan, olishga.

Darslikdagi barcha savollarga javob beriladi.

105-mashq. "O'yla, izla, top!" o'yini.

Aralash berilgan harflardan foydalanib, so'z yasang. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Gaplar qaysi qo'shimchalar orqali bog'lanyapti.

K	O	B	I	T	ilm koni					
Y	O	L	I	Q	tasanno					
M	A	R	D	O	quvvat					
A	Z	R	A	F	taxmin					
D	I	O	A	R	shakl					

106-mashq. Shartiga ko'ra bajariladi.

- Loyiha nima?
- O'quvchilardan qanday loyiha yarata olishlari so'raladi.
- Guruhlarda ish olib boriladi.

107-mashq. Matn ifodali o'qiladi. Ketma- ketlikda mashq shartiga ko'ra yoziladi.

Bog'chadan qaytayotganda, daraxtlarning shoxi, shoxini egdi, ko'chadan kelib, dadasidan so'radi-dadasidan bilib oldi, yerning qismini, bir xilda, bir-birlariga joy berganda, shamol bo'lishini.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

108-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

CHOP ETISH UCHUN EMAS!